



IJTIMOIIY TARMOQLARDA AXBOROT XURUJLARI VA TAHDIDLAR

Boymurodova Gulira'no

Shahrisabz davlat pedagogika instituti XT-1-24 guruhi talabasi

Annotatsiya: Hozirgi axborotlashgan asrimizda ijtimoiy tarmoqlarda insonni ma'naviy dunyosini shikastlovchi bir qancha tahdidlar ko'plab insonlarni, ayniqsa yoshlarni ongini zaharlamoqda. Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlardagi axborot xurujlari va ularni yoshlarga ta'siri haqida tahlil qilinadi hamda bu o'rgimchak to'riga ilinmaslik uchun tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tarmoq, telegram, instagram, Facebook, ommaviy madaniyat, ma'naviy infantillik, diniy ekstrimizm, onlayn pornogr

Аннотация: в наш современный информационный век многие люди, особенно молодежь, отравляются рядом людей, наносящих вред духовному миру людей в социальных сетях. В трех статьях представлен анализ информационных атак на социальные сети и их влияние на молодежь, а также рекомендации, как не попасть в эту ловушку.

Ключевые слова: социальная сеть, Telegram, Instagram, Facebook, массовая культура, духовный инфантилизм, религиозный экстремизм, интернет-

Abstract: In our current information age, a number of perpetrators of spiritual harm on social networks are poisoning the minds of many people, especially young people. This article analyzes information attacks on social networks and their impact on young people, as well as provides recommendations for avoiding this trap.

Keywords: social network, telegram, instagram, Facebook, mass culture, spiritual infantilism, religious extremism, online pornography. порнография. афиya.

XXI asr texnologiyalar asri bo'lib, Hozirda biz axborotlashgan jamiyat bo'sag'sida turibmiz. Ijtimoiy tarmoqlarning jozibadorligi ko'plab insonlarni o'ziga rom etmoqda. Ijtimoiy tarmoq -bu qiziqishlari o'xshash yoki oflayn-aloqaga ega bo'lgan odamlar o'rtasida muloqot qilish, tanishish, ijtimoiy munosabatlar yaratish uchun, shuningdek, ko'ngilochar va ish maqsadlarida ishlatiladigan onlayn platforma bo'lib, unga telegram, instagram Facebook kabilar kiradi.

Facebook 2004-yilda Harvard Universiteti talabasi Mark Zuckerberg va qo'shni xonadagi Eduardo Saverin, Moskovitz va Chris Hughes tomonidan asos solingan ijtimoiy tarmoq. Instagram-Kevin Systrom va Mike Krieger tomonidan yaratilgan hamda rasm va videolarni ulashishi uchun mo'ljallangan ijtimoiy tarmoq. Tanganing



ikki tomoni bo'lganidek, ijtimoiy tarmoqlarning ikki tomoni, ya'ni yaxshi va yomon tomonlari mavjud.

Ijobiy tomonlari: insonlar axborot topish va almashishdagi yengillik, biznes yuritishda beminnat yordamchi, shaxsiy rivojlantirish vositasi. Biroq bu tarmoqlarning salbiy tomonlari yoshlar ongini zaharlab o'rgimchak to'ridek o'z domiga tortmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra ijtimoiy tarmoqdan foydalanuvchilarning 80%ni yoshlar tashkil etadi.

Marshall Maklyuen aytganidek har bir axborot vositasi o'sha zamon kishilarini imtihondan, sinovdan o'tkazadi degandek hozirda axborot vositalari insonlarni sinovdan o'tkazmoqda. Eng halokatli nuqtasi shundaki, bu xurujlar ommaviy madaniyat niqobi ostida kirib kelib yoshlarni hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ommaviy madaniyat insonni haqiqiy real voqelikdan, hayotning real muammolaridan chalg'itadi. Hayotni, turmushni sun'iy lashtiradi, virtuellashtiradi. Bu shaxslar aro munosabatlarga ham tegishli. Begonalashish kuchayib, do'stlik, ulfatchilik, jonli muloqot odamlar o'rtasida, birinchi galda yoshlar orasida kamayib borayotir. Muloqot makoni endi -internet. O'zini, O'zligini namoyish etish endi Internetdagi ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshirilmqda. Bundan tashqari, chet ellarda zamonaviy agressiv kompyuter o'yinlar ta'sirida ruhiyati yemirilgan ayrim o'smirlar maktabda o'z sinfdoshlari va o'qituvchilariga avtomatik qurollaridan o't ochib, qotillik qilgani to'g'risida bot- bot ma'lumotlar tarqalib turadi. Biroq ommaviy madaniyatni jangari filmlar yoki kompyuter o'yinlari tashkil etmaydi. Ko'pchilikda ommaviy madaniyatni agressivlikni emas hayotga befarqlikni, loqaydlikni, ma'naviy infantillikni ta'minlaydi. Infantilizm bu-shaxsiy qaror yo'qligi muammolardan qo'rqish, istaklarining yo'qligidir. Atrofimizga haqiqat ko'zi bilan qaraydigan bo'lsak ko'p bolalar loqayddir. Bu bolalar bersang yeyman, bermasang o'laman qabiladagi bolalardir.

Ekspertlarning hisob-kitoblariga ko'ra, bugun butunjahon internet tarmog'ida o'z joniga qasd qilishning oson yo'llarini targ'ib qiluvchi 9 mln, erotik mazmunga ega 4 mlndan ziyod saytning mavjudligi har birimizni mushohada qilishga undashi tabiiy Mutaxassislar fikricha dunyodagi bolalar va o'smirlarning 42% "onlayn-pornografiya" ta'siriga tushayotgan ekan. Achinarlisi shundaki, ko'plab o'smirlar diniy ekstremizm tufayli boshi berk, chigal ko'chalarga kirib ketmoqda. Shuning uchun birinchi prezidentimiz I. A. Karimov "ONA YURTIMIZ BAXT-IQBOLI VA BUYUK KELAJAGI YO'LIDA-XIZMAT QILISH - ENG OLIY SAODATDIR"asarida shunday deydilar: Agar biz XXI asrdan tobora avj olib borayotgan globallashuv jarayonlari, Internet va intellektual taraqqiyot hal qiluvchi



rol o'ynayotgan bir davrda yashayotganligini hisobga oladigan bo'lsak, hayotimiz naqadar shiddatli sur'atlar bilan o'zgarib borayotganini chuqur his qilib boramiz".

Shunday ekan kundan kunga tezlashayotgan hayotda ogoh bo'lishimiz kerak, negaki ogohlik - davr talabi. I.A.Karimov ham "O'ZBEKISTON BUYUK KELAJAK SARI " asarida shunday deydilar: "Ogoh bo'ling odamlar"-degan da'vat hamisha bong urgandek yangrab turishi kerak. O'z erkimizni qanday tasarruf etish, uni bugungi murakkab va ba'zan shafqatsiz dunyodagi haddan ziyod xavf-xatarlardan saqlash har birimizga bog'liqdir". Ijtimoiy tarmoqlardagi tahdidlar ma'naviy tahdidlardir. "Ma'naviy tahdid deganda, avvalo, tili, dini, e'tiqodidan qat'i nazar, har qaysi odamning tom ma'nodagi erkin inson bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy va infarmatsion xurujlarni nazarda tutish lozim, deb o'ylayman"-deb yozadi birinchi prezidentimiz'- I.A.Karimov "YUKSAK MA'NAVIYAT-YENGILMAS KUCH" asarida. Umumiy qilib aytadigan bo'lsak bu tahdidlar millatimizni milliy madaniyatiga, bejirim urf-odatiga, rang-barang qadriyatlariga bolg'a uruvchi zararli qurol desak mubolag'a bo'lmaydi. Shuning uchun biz insonlar mushtni bir joyga to'plab bu qurolga qarshi harakat qilishimiz, aslo shunchaki qarab qo'ymasligimiz lozim. I.A.Karomov ham o'zining "YUKSAK MA'NAVIYAT-YENGILMAS KUCH" asarida shuni ta'kidlaydiki, barchamiz-qayerda, qanday lavozimda ishlamaylik, jamiyatimizning insoniylik va axloqiy aqidalarini poymol qiladigan axloqiy buzuvchilikni targ'ib qiluvchi vositalarga qarshi turishimiz lozim. Shunday ekan, aziz insonlar, ota-onalar, muallimlar yoshlarni tarbiyasiga befarq bo'lmaylik, birgina loqaydlik sabab jamiyatimizni ma'naviy dunyosiga putur yetkazishimiz mumkin. Bunga barchamiz ma'sulmiz. Shuning uchun ijtimoiy tarmoqlarda iloji boricha axloqiy, ilmiy, madaniy lavhalarni, dasturlarni ko'paytirib, bu dasturdan foydalanuvchi yoshlarni rag'batlantirib tursak, "viruslarga" qarshi imunitet hosil qilgan bo'lamiz.

Xulosa o'rnida shuni aytishim kerakki, ijtimoiy tarmoqlardagi xurujlarga qarshi yoshlarga imunitet paydo qilish kerak, imunitetni ma'rifat deb ataymiz chunki birinchi prezidentimiz aytganlaridek, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan kurashishimiz lozim.





Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I. A. KARIMOV "YUKSAK MA'NAVIYAT-YENGILMAS KUCH".
- 2."O'ZBEKISTON BUYUK KELAJAK SARI".
- 3.ONA YURTIMIZ BAXT-IQBOLI YO'LIDA-XIZMAT QILISH-ENG OLIY SAODATDIR".
4. Abdurahim Erkayev "Ma'naviyatshunoslik".
- 5.R.G'ulomova,T.Boygaziyev "MEDIA SAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATI".

